Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik



https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/1

Muzaffar KAMILOV[a]

[a]*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*
International Islamic Academy of Uzbekistan
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan

SIROJIDDIN O‘SHIYNING «AL-FATOVO» ASARIDA MUFTIY ODOBLARI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya. *Maqolada XII asr Farg‘ona faqihi Sirojiddin Ali ibn Usmon O‘shiyning «al-Fatovo as-Sirojiyya» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan ilmiy, axloqiy hamda kasbiy talablar tahlil qilinadi. Asarning «Kitobu adabil-muftiy vat-tanbihu ‘alal-javob» bo‘limi asosida fatvo berishning shar’iy hukmi, muftiyning ilmiy malakasi, mazhab imomlari qarashlari o‘rtasida ixtilof yuzaga kelganda fatvo uchun munosib qavlni tanlash tartibi yoritiladi. Shuningdek, savolning mohiyatini to‘liq anglash, javobni vaziyatga muvofiq tafsilotlash, dalil keltirish, bilmagan masalada javob berishdan tiyilish va xato fatvodan qaytish qoidalari o‘rganiladi. Muftiyning halimligi, vazminligi, yumshoq so‘zliligi, so‘rovchilarga teng munosabatda bo‘lishi hamda fatvoning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olishi alohida tahlil etiladi. Tadqiqotda matniy tahlil va qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilib, O‘shiyning qarashlari keyingi davr hanafiy manbalaridagi yondashuvlar bilan qiyoslanadi. Natijada muallif muftiy faoliyatida fiqhiy bilim, amaliy tajriba, ilmiy halollik va axloqiy mas’uliyatni o‘zaro bog‘liq talablar sifatida belgilagani ko‘rsatiladi. Ushbu ilmiy merosning zamonaviy fatvo amaliyotini takomillashtirish, asossiz diniy hukmlarning oldini olish va diniy-ma’rifiy soha mutaxassislarini tayyorlashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Sirojiddin O‘shiy, «al-Fatovo as-Sirojiyya», muftiy odoblari, fatvo berish, hanafiy mazhabi, fiqh, ilmiy malaka, ilmiy halollik, tarjih, fatvo mas’uliyati, kasbiy axloq, ijtimoiy mas’uliyat, Farg‘ona fiqh maktabi, Movarounnahr fiqh merosi.*

THE ETHICS OF THE MUFTI AND THE REQUIREMENTS IMPOSED ON HIM IN SIRAJ AL-DIN AL-USHI’S «AL-FATAWA»

Abstract. *This article examines the scholarly, ethical, and professional requirements for muftis outlined in al-Fatawa al-Sirajiyya by Siraj al-Din Ali ibn Uthman al-Ushi, a twelfth-century jurist from the Ferghana Valley. Drawing on the chapter Kitab Adab al-Mufti wa-l-Tanbih ‘ala al-Jawab, it explores the legal status of issuing fatwas, the scholarly qualifications required of a mufti, and the principles for selecting an appropriate opinion when the imams of the Hanafi school disagree. It also examines the rules for fully understanding a question, providing a sufficiently detailed and context-sensitive answer, citing evidence, refraining from answering questions beyond one’s knowledge, and retracting erroneous fatwas. Particular attention is paid to the mufti’s patience, composure, courteous communication, equal treatment of questioners, and consideration of the social consequences of fatwas. Using textual and comparative historical analysis, the study compares al-Ushi’s views with approaches found in later Hanafi sources. The findings show that al-Ushi regarded legal knowledge, practical experience, scholarly integrity, and ethical responsibility as interconnected requirements for a mufti. The article highlights the relevance of this intellectual heritage to improving contemporary fatwa practice, preventing unfounded religious rulings, and training specialists in religious education and guidance.*

Keywords: *Siraj al-Din al-Ushi, al-Fatawa al-Sirajiyya, ethics of the mufti, fatwa issuance, Hanafi school, Islamic jurisprudence, scholarly qualifications, scholarly integrity, juristic preference, responsibility in issuing fatwas, professional ethics, social responsibility, Ferghana school of jurisprudence, Transoxanian legal heritage.*

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

KIRISH

Fatvo – shar'iy masala yuzasidan malakali olim tomonidan beriladigan javob – islom huquqining nazariy qoidalarini kundalik hayot bilan bog'laydigan asosiy vositalardan biridir. Fiqh kitoblarida bayon qilingan hukmlar qanchalik mukammal bo'lmasin, ularni muayyan shaxs, muayyan zamon va makonga to'g'ri tatbiq etish muftiyning ilmi, tajribasi va axloqiy fazilatlariga bog'liq. Shu sababli islom huquqi tarixida fatvo berish tartibi, muftiyga qo'yiladigan talablar va uning odob-axloqiga bag'ishlangan maxsus yo'nalish – «adab al-muftiy» shakllangan. Bu yo'nalishning asosiy maqsadi fatvoni ilmsizlik, shoshqaloqlik, shaxsiy manfaat va ijtimoiy zararli oqibatlardan himoya qilishdan iborat.

Hanafiy mazhabining fatvo adabiyotini shakllantirishda Movarounnahr, xususan, Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan faqihlarning hissasi salmoqlidir. Hanafiy mazhabi Movarounnahrga Imom Muhammad Shayboniyning shogirdlari – Abu Sulaymon Jo'zjoniy va Abu Hafs Kabir Buxoriy orqali kirib kelgan, Buxoro esa tez orada mazhabning muhim markazlaridan biriga aylangan (Jo'zjoniy, 2002:175). Keyingi asrlarda bu zamindan Abul-Lays Samarqandiy, Qozixon O'zgandiy, Burhoniddin Mahmud Buxoriy kabi fatvo to'plamlari mualliflari yetishib chiqdi.

Ana shunday allomalardan biri – Abul-Hasan Sirojiddin Ali ibn Usmon O'shiy Farg'oniy (vaf. 1179-y.)dir. Uning «al-Fatovo as-sirojiya» asari ixcham hajmi, jumlalarining qisqa va tushunarli bayoni hamda boshqa fatvo to'plamlarida uchramaydigan nodir fatvolari bilan e'tirof etilgan. Asarning so'nggi qismlaridan biri «Kitobu adabil-muftiy vat-tanbihu 'alal-javob» («Muftiyning odobi va javob berishda ogoh bo'lish lozim bo'lgan narsalar kitobi») deb nomlanadi va muftiyning ilmiy hamda axloqiy qiyofasiga bag'ishlangan (O'shiy, 2019:599–606).

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali malakasiz shaxslar tomonidan berilayotgan asossiz «fatvo»larning ko'payishi, ularning jamiyatda nizo va ixtiloflarga sabab bo'lishi diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlar tayyorlash masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Bunday sharoitda mahalliy ulamolarning fatvo berish odobiga oid merosini o'rganish va uni zamonaviy amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – Sirojiddin O'shiyning «al-Fatovo» asaridagi muftiy odoblari va unga qo'yiladigan talablarni tarixiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning zamonaviy fatvo amaliyoti uchun ahamiyatini ochib berish. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: «fatvo» tushunchasi va fatvo berish an'anasining shakllanish bosqichlarini qisqacha yoritish; O'shiy va uning asarini Movarounnahr fatvo adabiyoti kontekstida tavsiflash; asardagi «adab al-muftiy» bo'limining mazmunini tizimli tahlil qilish; muallif qarashlarini hanafiy mazhabining keyingi manbalari bilan qiyoslash.

Sirojiddin O'shiy va uning asarlari haqidagi ma'lumotlar o'rta asr tabaqot va bibliografik asarlarida uchraydi. Xususan, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy, vaf. 1657-y.) «Kashf az-zunun» asarida «al-Fatovo as-sirojiya» haqida ma'lumot bergan (Hoji Xalifa, 2020:II/1224). Asarning bosma nashrlari orasida Bayrutdagi «Dor al-kutub al-ilmiya» (O'shiy, 2011) va Karochidagi «Maktabat Zamzam» (O'shiy, 2019) nashrlari ilmiy muomalada keng qo'llaniladi.

Zamonaviy tadqiqotlar orasida Jarkibay Sebetovning «al-Fatovo as-sirojiya» asari misolida O'shiyning fiqh ilmidagi o'rniga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi (Sebetov, 2015) hamda Mehmet Said Toprakning Turkiya Diyonat vaqfi islom ensiklopediyasidagi maqolasi (Toprak, 2012:230–231) alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan O. Qoriyev Farg'ona fiqh maktabi tarixini (Qoriyev, 2009:76), H. Aminov va S. Primov hanafiy fiqhi manbalari va istilohlarini (Aminov, Primov, 2017:183–184), Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf fiqhiy yo'nalishlar va kitoblarni (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022:139) yoritib, O'shiy merosiga ham to'xtalgan.

Fatvo berish odobi masalalari hanafiy mazhabining keyingi davr manbalarida ham batafsil yoritilgan. Ibn Nujaymning «al-Bahr ar-roiq» asari (Ibn Nujaym, 2013), Ibn Obidinning «Tanbih al-vulot va-l-hukkom» risolasi (Ibn Obidin, s.a.), zamonaviy olimlardan Muhammad Taqiy Usmoniyning «Usul al-ifto va adabuhu» (Usmoniy, 2011), Muhammad Horun ibn Muhibburrahmonning «al-Fath ar-rabboniy» (Muhibburrahmon, 2018) va Saloh Muhammad Abul-Hojning «al-Madxal al-mufassal ila-l-fiqh al-hanafiy» (Abul-Hoj, 2021) asarlari shular jumlasidandir. Fiqhning kazuistik, ya'ni misol keltirish uslubi turk tadqiqotchilari H. Karaman va Ya. Mahmudo'g'li ishlarida tahlil qilingan (Karaman, 1996:XIII/3; Mahmudo'g'li, 2012:II/135).

Shunga qaramay, O'shiy asaridagi «adab al-muftiy» bo'limi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ishlarda asosan asarning umumiy tavsifi, tuzilishi va ayrim fiqhiy masalalari ko'rib chiqilgan, muftiyga qo'yiladigan talablar tizimi esa yaxlit holda tahlil qilinmagan.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Tadqiqotda «al-Fatovo as-Sirojiyya»ning Karochidagi «Maktabat Zamzam» nashri (2019) asos qilib olindi, zarur o‘rinlarda Bayrut nashri (2011) bilan solishtirildi. Shuningdek, asarning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 2560, 3009, 7109, 7399 va 8106 raqamlari ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari mavjudligi, ular orasida 7109-raqamli nusxa eng to‘liq ekani inobatga olindi.

Asarning muftiy odobiga bag‘ishlangan bo‘limi (599–606-betlar) matniy tahlil qilinib, undagi qoidalar mavzuiy jihatdan guruhlandi. Tarixiylik, izchillik va ilmiy xolislik tamoyillariga amal qilingan holda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va muammoviy tahlil usullaridan foydalanildi. O‘shiyning qarashlari Ibn Nujaym, Ibn Obidin, Muhammad Taqiy Usmoniy va boshqa hanafiy olimlarining fikrlari bilan qiyoslandi. Arabcha iqtiboslar va ularning mazmuniy tarjimalari orqali muallifning yondashuvi yoritildi.

ASOSIY QISM

Arab tilida «al-fatvo» (الفتوى) so‘zi shar’iy hukmga aloqador bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’i nazar, savolga javob berish ma’nosini anglatadi (Usmoniy, 2011:8). Bu ma’no Qur’oni karimda ham uchraydi: Yusuf surasining 43-oyatida Misr podshohi tushining ta’birini so‘raganda va 46-oyatida zindondagi sherigi Yusuf alayhissalomdan javob so‘raganda «aftuniy» (أفتوني), «aftino» (أفتنا) shakllari qo‘llanilgan. Naml surasining 32-oyatida Saba’ malikasining o‘z a’yonlaridan maslahat so‘rashi ham «aftuniy» fe’li bilan ifodalangan. Bu o‘rinlarda so‘z shar’iy hukmga emas, umuman savolga javob berishga taalluqli. Niso surasining 127 va 176-oyatlarida esa «istifto» va «ifto» so‘zlari aynan shariatga oid savolga javob berish ma’nosida kelgan.

Muhammad Taqiy Usmoniy fiqh olimlari nazdi-da «fatvo» va «ifto» so‘zlarining uch ma’noda qo‘llanilishini qayd etadi: birinchisi – Alloh va Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam tomonidan shar’iy hukmlarni joriy qilish ma’nosidagi «tashri’iy fatvo»; ikkinchisi – fiqhga oid fatvolar; uchinchisi – harom, muboh, mandub, makruh, sahih yoki botil kabi aniq hukmni ifodalaydigan «juz’iy fatvo» (Usmoniy, 2011:9). Bugungi kunda bu atama keng ma’noda, ya’ni din va dinga aloqador barcha savollarga javob berish ma’nosida qo‘llaniladi.

Islomda ilk muftiy Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning o‘zlari bo‘lgan. U zot sahobiylarga fatvo berish va hukm chiqarish usullarini ham amalda o‘rgatganlar. Jumladan, Amr ibn Osdan rivoyat qilingan hadisda: «Hukm qiluvchi ijtihod qilib, to‘g‘ri hukm chiqarsa, unga ikki ajr, ijtihod qilib xato qilsa, bitta ajr bor», deyilgan (Buxoriy, 2022:1686). Bu hadis fatvo va ijtihodda xolis harakat qilgan olimning xatosi kechirilishini, ayni paytda ijtihodga loyiqlik shart ekanini ko‘rsatadi.

Sahobiylar davrida fatvo berishning aniq uslubiy tartibi shakllandi. Imom Dorimiy rivoyat qilishicha, Umar ibn Xattob qozi Shurayhga yo‘llagan maktubida avval Alloh kitobi bilan, unda bo‘lmasa Rasulullоh sunnati bilan, unda ham bo‘lmasa ulamolar ijmo‘ qilgan narsa bilan hukm qilishni, bularning hech birida topilmasa o‘z ijtihodiga tayanishni buyurgan. Abdulloh ibn Mas’ud va Abdulloh ibn Abbosdan ham xuddi shunday tartib rivoyat qilingan (Dorimiy, 2007:№168–171). Shunday qilib, Qur’on, sunnat, ijmo‘ va qiyos (ra’y) ketma-ketligi fatvo berishning asosiy tamoyiliga aylandi.

Tobe’inlar davrida yuzaga hali kelmagan voqealar uchun hukm chiqarish – «farazi fiqh» masalasi bahsga sabab bo‘ldi. Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka’b, Ammor ibn Yosir kabi sahobalar savol beruvchidan «Bu voqea sodir bo‘ldimi?» deb so‘rab, sodir bo‘lmagan masalaga javob berishdan tiyilganlar (Dorimiy, 2007:285–288). Hanafiy mazhabi esa bu masalada boshqacha yo‘l tutib, shogirdlarni ijtihodga o‘rgatish maqsadida voqelikda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalarni faraz qilish an’anasini rivojlantirgan (Muhibburrahmon, 2018:134). Abu Hanifa voqelikda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, foydasiz farazlardan esa shogirdlarini qaytargan. Xatib Bag‘dodiy ham Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam hali sodir bo‘lmagan voqea haqidagi savollarga javob bergan holatlarni keltirib, ilm o‘rgatishni maqsad qilgan farazlarning joizligini asoslagan (Muhibburrahmon, 2018:136). Bu an’ana keyinchalik hanafiy fatvo to‘plamlarining boy va rang-barang mazmunini belgilab berdi.

Hanafiy mazhabida masalalar ishonchliligiga ko‘ra uch tabaqaga ajratiladi. Birinchi tabaqani Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy rivoyat qilgan, mazhabning uch asosiy imomi qarashlarini o‘z ichiga olgan «Zohir ar-rivoya» (boshqacha nomi «Masoil al-usul») kitoblari tashkil etadi. Ikkinchi tabaqa – shu imomlardan boshqa yo‘llar bilan rivoyat qilingan «navodir» masalalari. Uchinchi tabaqa esa keyingi davr faqihlariga berilgan savollarga javob sifatida ishlab chiqilgan va «fatovo» yoki «voqi’ot» deb nomlangan masalalardir. Faqihlar savolning javobini avval dastlabki ikki tabaqa kitoblaridan izlagan, topilmasa, mazhab

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qoidalari doirasida ijtihod qilgan. Ana shu javoblar jamlanishi natijasida fatvo kitoblari yuzaga kelgan. Demak, fatvo to‘plamlari mazhabning qotib qolgan qoidalar majmui emas, balki uning yangi voqealarga javob berish qobiliyatining ifodasidir.

Movarounnahr hanafiy faqihlari fatvo adabiyotining shakllanishida yetakchi rol o‘ynagan. Abul-Lays Samarqandiyning «an-Navozil» asari hanafiy mazhabida fiqhiy fatvolar jamlangan ilk to‘plamlardan biri hisoblanadi (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022:139). Keyinchalik Qozixon nomi bilan mashhur Faxriddin Hasan ibn Mansur O‘zgandiyning «Fatovoyi Qozixon» asari amal qilinadigan, faqihlar va qozilar tayanadigan manbaga aylandi (Hoji Xalifa, 2020:II/1227). Burhoniddin Mahmud Buxoriyning «al-Muhit al-Burhoniy», Zahiriddin Marg‘inoniy va boshqa allomalarning fatvo to‘plamlari ham shu qatorda turadi.

Qozixon hanafiy mujtahidlari tabaqasida «ahli tarjih», ya’ni turli rivoyatlar orasidan kuchlisini tanlashga qodir olimlar darajasida turgan (Laknaviy, 2009:65). U o‘z asari muqaddimasida kitobga ko‘p sodir bo‘ladigan, ehtiyoj tushadigan, ummat hayotida uchrab turadigan masalalarni kiritganini, ularning bir qismi mutaqaddim imomlardan, bir qismi keyingi mashoyixlardan naql qilinganini, har bir tur uchun alohida fasl ajratib, har bir far’ning aslini bayon qilganini yozadi (Qozixon, 2009:I/7). Bu so‘zlar fatvo to‘plamlarining asosiy vazifasi – amaliy hayotda uchraydigan masalalarga mazhab manbalariga tayangan holda javob berish ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Marg‘ilonda tug‘ilgan Burhoniddin Mahmud Buxoriy ilm va solihlik bilan mashhur Moza xonadoniga mansub bo‘lib (Laknaviy, 2009:205), «al-Muhit al-Burhoniy» asarini yozishda uch manbaga tayangan: yoshligidan fatvo berib kelgan davrda o‘zidan so‘ralgan masalalar va Samarqanddagi fatvolari; «Zohir ar-rivoya» va «Navodir» kitoblaridagi masalalar; ustoz va mashoyixlarining fatvolari (Burhoniddin Buxoriy, 2004:I/90). Bu misol Movarounnahr muftiylarining shaxsiy fatvo tajribasini mazhabning asosiy manbalari va ustozlar an’anasi bilan uyg‘unlashtirganini ko‘rsatadi. O‘shiyning muftiyga «ustoz huzurida fatvoni o‘rganish» talabini qo‘yishi ham aynan shu an’ananing davomidir.

Sirojiddin O‘shiy aynan shu ilmiy muhitda yetishib chiqqan. U Farg‘ona vodiysidagi O‘sh shahriga nisbat berilgan bo‘lib, fiqhdan tashqari aqida va hadis ilmlarida ham asarlar qoldirgan. Uning moturidiylik aqidasini nazmda bayon qilgan «Bad’ al-amoliy» qasidasi asrlar davomida madrasalarda yod oldirilgan va ko‘plab sharhlarga asos bo‘lgan, «Nisob al-axbor» asari esa hadis ilmida saylanma (muntaxab) to‘plamlar an’anasining namunasi hisoblanadi (Toprak, 2012:230–231). Shunday qilib, O‘shiy fiqh, kalom va hadisni birlashtirgan qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning «al-Fatovo as-sirojiya» asari bir jilddan iborat bo‘lib, klassik fiqh kitoblari kabi muayyan tartibda joylashtirilgan 57 ta kitob, 408 ta bob va ayrim boblar ichidagi 37 ta fasldan tashkil topgan. Asar qisqa muqaddima bilan boshlanadi (O‘shiy, 2019:24) va tahoratdan boshlab «Muftiyning odobi» kitobigacha bo‘lgan barcha furu’ masalalarni qamrab oladi. Har bir kitob boshida undagi boblar soni va nomlari keltiriladi; ayrim kitoblarda (masalan, «Luqata», «Havola», «Ashriba») boblar bo‘lmay, masalalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilinadi.

Asar arab tilida yozilgan, biroq unda fors tilidagi so‘z va iboralar, ayrim arabcha atamalarning turkiy ma’nolari ham uchraydi. Bu holat O‘shiy yashagan davrda Farg‘ona vodiysida turli xalqlar birga yashagani va ularning tiliga oid hodisalar fatvo amaliyotiga ham ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Masalan, taloq, qasam va savdo kitoblarida forscha talaffuz qilingan iboralarning hukmi alohida bayon qilinadi (O‘shiy, 2019:254, 301, 437). Muallif fatvolarda Farg‘ona, O‘zgan, O‘sh, Samarqand, Buxoro, Balx kabi joy nomlarini ham tilga oladi, bu esa asarning mahalliy hayot bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

O‘shiy fatvolarni yoritishda fiqhning an’anaviy kazuistik, ya’ni aniq hodisa misolida hukm chiqarish uslubidan foydalangan. Tadqiqotchilar bu uslub fiqhni qotib qolgan qoidalar va dogmatik shakldan saqlab, turli shart, zamon va muhitga mos turlicha yechimlar ishlab chiqish imkonini berishini ta’kidlaydi (Karaman, 1996:XIII/3; Mahmudo‘g‘li, 2012:II/141). Muallif ayrim o‘rinlarda atamalarning lug‘aviy ma’nosini izohlaydi, ba’zi ibodatlarga oid boblarda avval hukmni qisqa bayon qilib, so‘ng tafsilotga o‘tadi, ba’zan esa masalaga oid hikoya va rivoyatlarni ham keltiradi. Ana shu xususiyatlar asarning so‘nggi qismi – muftiy odobiga oid kitobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘shiy «Muftiyning odobi» kitobini fatvo berishning hukmi masalasi bilan boshlaydi. U avval ayrim olimlar fatvo berishni makruh sanaganini va ular «Fatvoga eng jur’atli bo‘lganingiz – do‘zaxga eng jur’atli bo‘lganingizdir» mazmunidagi rivoyatga hamda Salmon Forsiyning «Bu (fatvo berishim) sizlar uchun yaxshilik, men uchun yomonlik» degan so‘ziga tayanganini keltiradi. Shuningdek, Abdurrahmon ibn Abu Laylodan rivoyat qilinishicha, u Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning 120 nafar sahobasini ko‘rgan va ulardan qaysi biridan hadis yoki fatvo

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

so‘ralsa, birodari uning o‘rniga javob berishini istagan (O‘shiy, 2019:599). Bu rivoyatlar sahobalarning fatvo mas’uliyatidan qanchalik ehtiyot bo‘lganini ko‘rsatadi. Shundan so‘ng O‘shiy o‘z xulosasini bayon qiladi:

والصحيح أنّه لا يكره ذلك لمن كان أهلا لقوله تعالى: فَاسْأَلُوا أَهْلَ الذِّكْرِ إِن كُنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ، وكان هذا أمرا بالإجابة عن السؤال

Ya’ni, sahih qarashga ko‘ra, fatvoga loyiq kishi uchun fatvo berish makruh emas, chunki «Agar bilmasangiz, zikr ahlidan so‘rang» (Nahl, 43) oyati savolga javob berishga buyruqni ham o‘z ichiga oladi (O‘shiy, 2019:599). Demak, O‘shiy ehtiyotkorlikni targ‘ib qiluvchi rivoyatlarni inkor qilmaydi, balki ularni fatvoga loyiq bo‘lmagan kishilarga nisbatan talqin qiladi.

Fiqhiy adabiyotlarda qayd etilishicha, fatvo berishning hukmi vaziyatga qarab o‘zgaradi. Agar fatvo so‘ralgan kishidan boshqa fatvoga loyiq kishilar mavjud bo‘lsa, fatvo berish farzi kifoya bo‘ladi, ya’ni ulardan biri javob bersa, qolganlardan mas’uliyat soqit bo‘ladi. Uch holatda esa fatvo berish farzi ayn hisoblanadi: birinchidan, fatvoga loyiq kishi topilmaydigan joyda hukmni biladigan kishidan so‘ralganda; ikkinchidan, kishi shoshilinch ehtiyoj tug‘ilgan masalaning hukmini so‘rab, javob olmasa shariat man qilgan holatga tushib qolishidan qo‘rqqanda (masalan, namoz vaqti chiqib ketay deb turganda); uchinchidan, hukmdor tomonidan muftiylikka rasman tayinlanganda. Aksincha, umuman fatvoga loyiq bo‘lsa-da, so‘ralgan aniq masalaning hukmini bilmasa, uni istinbot qilishga qodir bo‘lmasa yoki dalillarni tarjih qila olmasa, fatvo berishi joiz emas. Bu borada Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning «Qozilar uch toifa: biri jannatda, ikkisi do‘zaxda. Jannatdagisi haqni bilib, unga ko‘ra hukm qilgan kishi; haqni bilib, nohaq hukm qilgan va odamlarga ilmsizlik bilan hukm chiqargan kishilar do‘zaxdadir» degan hadisi dalil qilinadi.

O‘shiy muftiy uchun asosiy shartni quyidagicha belgilaydi:

ولا ينبغي لأحد أن يفتي إلا أن يعرف أقاويل العلماء، ويعلم من أين قالوا، ويعرف معاملات الناس.

Ya’ni, olimlarning qarashlarini, ular bu qarashlarni qayerdan olganini va odamlarning o‘zaro muomalalarini bilmagan kishi fatvo bermasligi lozim (O‘shiy, 2019:600). Ushbu talab uch tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: mazhab olimlarining qarashlarini bilish; ularning dalillari va ijtihod yo‘llarini anglash; jamiyat hayoti, urf-odatlar va muomalalarni tushunish. Saloh Muhammad Abul-Hoj ham muftiydan fiqhiy masalalarning dalillarini ikki jihatdan bilishni talab qiladi: usulul-fiqh ilmini puxta egallab, masalalarning umumiy dalillarini bilish hamda har bir masalaning Qur’on, sunnat, ijmo‘, qiyos, istehson, istishob yoki sahoba qavlidan iborat o‘ziga xos dalilini bilish (Abul-Hoj, 2021:492).

O‘shiy dalilni bilmaydigan muftiyning javob berish chegaralarini ham aniq belgilaydi. Uning fikricha, agar muftiy olimlar qarashlarini bilsa-yu, ularning dalillarini bilmasa, ittifoqiy masalalarda «bu joiz, bu joiz emas» deb javob berishi mumkin, chunki bu holda uning so‘zi ulamolar fikrini hikoya qilish tarzida bo‘ladi. Ixtilofli masalalarda esa «falon olimning qarashiga ko‘ra joiz, falonchining qarashiga ko‘ra joiz emas» deb, har bir fikrni egasiga nisbat berib aytishi mumkin. Ammo dalilini bilmay turib, ixtilofli qarashlardan birini o‘z ixtiyori bilan tanlab, fatvo sifatida taqdim etishi joiz emas. Muallif bunga Abu Yusuf, Zufar va Uqba ibn Yazidning «Qayerdan aytganimizni bilmagan kishiga bizning so‘zimiz bilan fatvo berish halol emas» degan so‘zlarini dalil qiladi (O‘shiy, 2019:600).

Muallif muftiyning malakasini baholash mezonini ham keltiradi: Imom Muhammad ibn Hasandan «Kishiga qachon fatvo berish halol bo‘ladi?» deb so‘ralganda, «To‘g‘ri javobi xatosidan ko‘p bo‘lganda» deb javob bergan (O‘shiy, 2019:600). Shuningdek, O‘shiy hanafiy imomlarining barcha kitoblarini yod olgan kishi ham fatvoga loyiq bo‘lgunicha ustoz huzurida fatvo berishni o‘rganishi kerakligini, chunki mazhab imomlari ko‘plab masalalarda o‘z yurtlarining urf-odatlari va muomalalarini hisobga olib javob berganini ta’kidlaydi (O‘shiy, 2019:601). Imom Molikning «Yetmish nafar olim fatvoga loyiq ekanimga guvohlik bermagunicha fatvo bermadim» degan so‘zi ham shu ma’noda keltiriladi (Abul-Hoj, 2021:492). Bu fikrlar fatvo berish faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tajriba va ustoz-shogird an’anasi orqali egallanadigan ko‘nikma ekanini ko‘rsatadi.

O‘shiy Abdulloh ibn Mas’uddan rivoyat qiladi: «Kimdan bilgan narsasi so‘ralsa, aytsin; bilmasa, «Alloh biluvchiroq», desin. Bilmagan narsasiga «bilmayman» deyish ham ilmdandir». Shuningdek, Shaddod ibn Hakimdan «Alloh Odamni o‘z suratida yaratdi» mazmunidagi hadis haqida so‘ralganda, u «Biz unga iymon keltiramiz va uni tafsir qilmaymiz», deb javob bergani, Abul Lays Samarqandiy esa buni «Ilmda mustahkam bo‘lganlar: «Unga iymon keltirdik», deydilar» (Oli Imron, 7) oyati bilan asoslagani keltiriladi (O‘shiy, 2019:602).

Ushbu rivoyatlardan O‘shiyning qarashiga ko‘ra muftiy avvalo javobini aniq bilgan savolga javob berishi, aks holda bilmasligini ochiq tan olishi lozimligi kelib chiqadi. Bilmagan narsasini tan olish muftiyning

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

obro‘sini tushirmaydi, aksincha, uning ilmiy halolligi va Alloh oldidagi mas’uliyatini anglashidan dalolat beradi. Bundan tashqari, muftiy beradigan fatvosining oqibatini ham o‘ylashi kerak: noto‘g‘ri fatvo nizo, zulm va gunohga sabab bo‘lishi, to‘g‘ri fatvo esa jamiyat islohiga xizmat qilishi mumkin.

Hanafiy mazhabida bir masala yuzasidan imomlar turli fikr bildirgan holatlar ko‘p uchraydi. O‘shiy bunday hollarda fatvo qaysi qavlga berilishini quyidagicha belgilaydi:

ثم الفتوى على الإطلاق على قول أبي حنيفة، ثم بقول صاحبيه، ثم بقول أبي يوسف، ثم بقول محمد بن الحسن، ثم بقول زفر بن الهذيل والحسن بن زياد.

Ya’ni, fatvo mutlaq holatda Abu Hanifaning qavliga, so‘ng ikki shogirdi – Abu Yusuf va Muhammadning ittifoqiy qavliga, so‘ng Abu Yusufning, so‘ng Muhammad ibn Hasanning, so‘ngra Zufar ibn Huzayl va Hasan ibn Ziyodning qavliga beriladi. Agar Abu Hanifa bir tomonda, ikki shogirdi boshqa tomonda bo‘lsa, muftiy ixtiyorli ekani haqidagi qarash ham keltirilgan, ammo O‘shiy muftiy mujtahid bo‘lmasa, birinchi qarash sahihroq ekanini, chunki Abu Hanifa o‘z zamonining eng bilimdon olimi bo‘lganini ta’kidlaydi (O‘shiy, 2019:602).

Ushbu ierarxiya keyingi davr hanafiy olimlari tomonidan ham tasdiqlangan. Ibn Obidin «Tanbih al-vulot val-hukkom» risolasida Aminuddin ibn Abdulolning fatvolaridan, «Xulosa», «Qozixon» va «Hoviy Qudsiy» asarlaridan naql qilib, Abu Hanifadan rivoyatlar turlicha bo‘lsa, hujjati kuchlirog‘i olinishini; Abu Yusuf va Muhammadning qarashi Abu Hanifaga muvofiq bo‘lsa, muftiy undan boshqasini ololmasligini; Abu Hanifa ikki shogirdidan biri bilan birga bo‘lsa, bu uchala imom ittifoqi hukmida bo‘lishini; ikki shogirdi Abu Hanifaga qarshi bo‘lsa ham uning qavli olinishini bayon qiladi (Ibn Obidin, s.a.:I/329). Shunday qilib, O‘shiy bayon qilgan tartib hanafiy mazhabida qaror topgan fatvo qoidalarining dastlabki ifodalaridan biri hisoblanadi.

Agar ikki faqih bir savolga turlicha javob bersa, O‘shiy Qozi Imom Sug‘diydan rivoyat qilib, ularning parhezkorligi ma’lum bo‘lgach, faqihrog‘iga ergashilishini aytadi (O‘shiy, 2019:602). Bu masalada keyingi olimlar ham fikr bildirgan. Ibn Nujaym ilmi ko‘prog‘ini parhezkorrog‘idan ustun qo‘yish sahih ekanini qat’iy bayon qilgan (Ibn Nujaym, 2013:VI/449). Hofiz Ibn Solah esa uch xil qarash borligini qayd etgan: birinchisi – ikki fatvodan og‘irrog‘ini olish, chunki u ehtiyotliroq; ikkinchisi – yengilrog‘ini olish, chunki Payg‘ambar alayhissalom yengil va bag‘rikeng dinni olib kelganlar; uchinchisi va eng ishonchlisi – olimrog‘i va parhezkorrog‘ining fatvosini olish (Muhibburrahmon, 2018:613). O‘shiyning qarashi aynan shu uchinchi qarashga mos keladi.

O‘shiyga ko‘ra, muftiy har bir savolga javob berishga majbur emas. Mantiqan muhol savollarga javob berish lozim emas: agar kimdir «Alloh o‘zining mislini yaratishga qodirmi?» deb so‘rasa, unga savolning o‘zi muhol ekani aytiladi, chunki yaratilgan narsa yaratuvchining misli bo‘lmaydi. «Alloh jannat ahlining nafaslari sonini biladimi?» deb so‘ralganda esa, «Alloh ularning nafaslari soni chegaralanmaganini biladi» deb javob beriladi (O‘shiy, 2019:603). Bu misollar muftiydan aqidaviy masalalarda ham mantiqiy tafakkur va ehtiyotkorlik talab qilinishini ko‘rsatadi.

Muallif Ibn Mas’udning «Odamlarning har bir so‘raganiga fatvo beradigan kishi majnundir» degan so‘zini va Ibn Shubrumaning «Shunday masalalar borki, so‘rovchi uchun ularni so‘rash ham, javob beruvchi uchun javob berish ham halol emas», degan qarashini keltiradi. Shuningdek, Abu Yusuf Horun ar-Rashid huzurida kalom bahsiga hakam bo‘lishdan «Men o‘zimga taalluqli bo‘lmagan narsaga aralashmayman», deb bosh tortgani, xalifa esa buni ma’qullab, unga yuz ming dirham berib, bu voqeani devonga yozdirib qo‘ygani haqidagi hikoya keltiriladi (O‘shiy, 2019:602).

Hanafiy usuliga ko‘ra, javob fitnaga, ochiq buzg‘unchilikka yoki ko‘zlanmagan ma’nolarda talqin qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham fatvo berilmaydi, chunki zararni daf qilish manfaat keltirishdan oldin turadi (Muhibburrahmon, 2018:572). Ibn Abbosdan rivoyat qilinishicha, sahobalar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan butun umrlari davomida bor-yo‘g‘i o‘n uchta masala so‘raganlar va faqat manfaati bor narsalarnigina so‘rar edilar (Muhibburrahmon, 2018:573). Demak, O‘shiyning nazdida muftiy savolning foydasi va oqibatini baholab, jamiyat uchun zararli yoki keraksiz bahslardan o‘zini tiyishi kerak.

O‘shiy «Agar so‘ralmasa, muftiy fatvosiga hujjat keltirmasligi lozim», degan qarashni keltiradi (O‘shiy, 2019:603). Bu masalada ulamolar ikki xil fikr bildirgan. Birinchi guruh, jumladan, shofe’iylardan Movardiy, molikiylardan Qarofiy muftiy faqat hukmni aytishga mas’ul ekanini, faqat ba’zi faqihlar hukmni inkor qilib, ziddiyat chiqishi ehtimoli bo‘lgandagina dalilni aytishini qayd etgan. Ikkinchi guruh – Xatib Bag‘dodiy va Ibn Solah – dalil ochiq, qisqa va tushunarli bo‘lsa, uni aytish mumkinligini, faqat faqihlargina tushunadigan qiyos kabi dalillarni esa aytmaslik kerakligini ta’kidlagan (Muhibburrahmon, 2018:596).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Fatvoda dalilni bilish bilan uni javob matnida batafsil bayon qilishni farqlash zarur. O‘shiy keltirgan qoida javobning bayon shakliga taalluqli bo‘lib, muftiyning hukm asoslarini bilishi haqidagi talabni bekor qilmaydi. Shu jihatdan, javobning hajmi va tushuntirish usuli so‘rovchining ehtiyoji hamda bilim darajasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

O‘shiy muftiy xato qilganini anglasa, undan qaytishi, bundan uyalmasligi va bosh tortmasligi kerakligini ta’kidlaydi:

ينبغي للمفتي إذا ظهر عنده أنه أخطأ أن يرجع عنه ولا يستحيي ولا ينكف.

Muallif bu fikrni Abu Hanifa (yoki boshqa bir imom) bir masalaga javob berganida shogirdi Nuh ibn Darroj «Xato qildingiz» degani, imom esa xatoni tan olib, «Agar Nuh ibn Darroj tuzatib qo‘ymaganida, qadamim balanddan toyilib ketay degan edi» mazmunidagi baytni aytgani haqidagi rivoyat bilan asoslaydi (O‘shiy, 2019:603). Umar ibn Xattobning Abu Muso Ash’ariyga yo‘llagan maktubidagi «Kecha chiqargan hukming xato bo‘lsa, uni bekor qilib, haqqa qaytishingdan seni hech narsa to‘smasin. Haq azaliydir, haqqa qaytish botilda qolaverishdan yaxshiroqdir» degan so‘zlari ham shu ma’noni tasdiqlaydi (Usmoniy, 2011:295).

Demak, O‘shiyga ko‘ra, fatvo bergan kishi go‘yo Alloh va Uning Rasuli nomidan hukm aytayotgan kishi kabi bo‘lib, bu mas’uliyatni his qilgan holda xatosini o‘zi tuzatishi lozim. Xatoni tan olish muftiy obro‘siga putur yetkazmaydi, aksincha, fatvo institutiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Muallif Abu Hanifadan «Kishining tushunib turib xato qilgani tushunmay turib to‘g‘ri topganidan yaxshiroqdir» degan so‘zni rivoyat qiladi. Shuningdek, «Kimning fikrlashi oz bo‘lsa, toyilishi ko‘p bo‘ladi; kim shoshqaloqlikka minsa, toyilishdan omon qolmaydi» degan hikmatni hamda halol va haromga oid fatvoda shoshilmaslikka chaqiruvchi baytlarni keltiradi (O‘shiy, 2019:603). Unga ko‘ra, savolni to‘liq tushunmay javob bergan kishi, hatto to‘g‘ri topgan bo‘lsa ham, zimmasidagi vazifani lozim darajada ado etmagan bo‘ladi.

O‘shiy muftiyning so‘rovchiga munosabatiga oid odoblarni ham batafsil bayon qiladi. Imom Abu Bakr Iskof Balxiydan rivoyat qilinishicha, agar so‘rovchi Abu Nasr Muhammad ibn Salomdan uzoq yerdan kelganini aytib, javob berishga shoshirsa, u «Biz seni kelgan joyingdan chaqirmadik, yo‘llarni ham sendan yashirmadik» mazmunidagi baytni aytar edi. Faqih Abul-Lays Samarqandiy esa muftiy avvaliga yumshoqlik bilan «Mana shu ishdan bo‘shab olay» deyishi, so‘rovchi qattiq turib olsagina shunga o‘xshash javob qaytarishi joizligini aytadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, umuman olganda muftiy halim, vazmin, yumshoq so‘zli va ochiq yuzli bo‘lishi, avval kelganga avval javob berishi va jamiyatdagi mavqei baland kishini past kishidan ustun qo‘ymasligi lozim (O‘shiy, 2019:606).

Bu ko‘rsatmalarda muftiyning kasbiy etikasi bilan birga ijtimoiy adolat tamoyili ham o‘z ifodasini topgan. Navbatga rioya qilish va odamlarni mavqeiga qarab ajratmaslik talabi fatvo xizmatining hamma uchun teng ochiq bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘shiyga ko‘ra, muftiyga beriladigan savollar har doim ham «ha» yoki «yo‘q», «joiz» yoki «joiz emas» degan qisqa javob bilan kifoyalanadigan sodda savollar bo‘lavermaydi. Muftiy savolga chuqur nazar tashlashi, agar u tafsilot talab qiladigan turdan bo‘lsa, tafsilotlab javob berishi, mutlaq javob bermasligi kerak, aks holda xato qiladi:

للمفتي إذا سئل عن مسألة أن يمعن النظر فيها، فإن كانت من جنس ما يفصل في جوابها يفصل، ولا يجيب على الإطلاق فإنه يكون مخطئا.

Muallif buni ikki misol bilan izohlaydi. Birinchisi: bir kishi boshqasini ming dirham mahr evaziga o‘zini nikohlab qo‘yish uchun vakil qilsa, vakil esa ming dirhamga o‘zidan qo‘shimcha qo‘shib nikohlasa, nikoh joizmi? Muftiy «ha» yoki «yo‘q» desa, xato qiladi. To‘g‘ri javob: agar vakil ma’lum narsani qo‘shgan bo‘lsa, nikoh joiz emas, chunki u vakolatga xilof ish qilgan; agar noma’lum qo‘shimcha (masalan, hadya) qo‘shgan bo‘lsa, ayolning mahri misli ming dirham yoki undan kam bo‘lsa joiz, ko‘p bo‘lsa joiz emas (O‘shiy, 2019:604).

Ikkinchi misol: bir kishi ikki qarzdordan beshtadan dirham olib, ularni aralashtirib yuborsa, keyin ayrim dirhamlar qalbaki chiqsa va har ikki qarzdor ularni bermaganini aytsa, u qalbaki dirhamlarni ulardan biriga qaytara oladimi? Muallif javobni qalbaki dirhamlar soniga qarab bosqichma-bosqich bayon qiladi: oltitadan kam bo‘lsa, hech narsa qaytara olmaydi; oltita bo‘lsa, har biriga bittadan; yettita bo‘lsa, ikkitadan; sakkizta bo‘lsa, uchtadan qaytara oladi, «qolganini shunga qiyos qilib tushun» (O‘shiy, 2019:605). Bu misollar O‘shiyning fatvoda kazuistik uslubdan mohirona foydalanganini va muftiydan nafaqat fiqhiy bilim, balki mantiqiy va hisob-kitob tafakkurini ham talab qilganini ko‘rsatadi.

O‘shiy muftiy fatvo berish jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan so‘nggi odobni quyidagicha ifodalaydi: muftiy javobidan so‘ng «Vallohu a’lam» (Alloh biluvchiroq) kabi so‘zlarni yozishi, ahli sunna val-jamoa ijmo‘ qilgan diniy masalalarda esa «Vallohul-muvaffiq» (tavfiq beruvchi Allohdir), «Va billahit-tavfiq» (tavfiq Allohdandir) yoki «Va billahil-‘isma»

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

(xatodan saqlanish Allohdandir) kabi so‘zlar bilan yakunlashi lozim (O‘shiy, 2019:606).

Bu odob muftiyning fatvo berib xotirjam bo‘lib qolmasligi, haqiqiy ilm egasi Alloh ekanini, o‘zi esa xato qilishi mumkin bo‘lgan banda ekanini anglashini ifodalaydi. Shu tariqa fatvo matnining o‘zi ham muftiyning kamtarlik va mas’uliyat tuyg‘usini aks ettiradi.

O‘shiy muftiyga qo‘ygan talablarni o‘z fatvo amaliyotida ham izchil qo‘llagan. Buni uning ixtilofli masalalardagi tarjihlari va ixtiyorlari misolida ko‘rish mumkin. Muallif bunday hollarda ko‘pincha «va huval-muxtor» (ixtiyor qilingan qarash shu) yoki «val-fatvo ‘alayhi» (fatvo shunga) kabi iboralar bilan o‘z tanlovini bildiradi, ba’zan esa mazhabning mashhur qarashidan farqli fikrni tarjih qiladi.

Birinchi misol – tashahhudda ko‘rsatkich barmoq bilan ishora qilish masalasi. O‘shiy «Namoz kitobi»ning namozdagi makruh ishlar bobida «Namozda “ashhadu allaa ilaaha illalloh” deyilganda ko‘rsatkich barmoq bilan ishora qilish makruh; ixtiyor qilingan qarash shudir» deydi (O‘shiy, 2019:73). Bu masala hanafiy mazhabining eng ishonchli manbalari – «Zohir ar-rivoya» kitoblarida uchramagani sababli mazhab olimlari o‘rtasida turli qarashlar yuzaga kelgan. Barmoq ko‘tarishni yoqlagan olimlar bu haqdagi hadislar ma’nan mutavotir darajasida ekanini dalil qilgan (Aliy al-Qoriy, s.a.:68–81). Ko‘tarmaslik tarafdorlari esa qa’dada qo‘llarning son ustida turishi sunnat ekanini va namozdagi xushu’ va sukunat holatiga e’tibor qaratgan (Kosoniy, s.a.:II/70). O‘shiyning makruhlik qarashini tarjih qilishi, ehtimol, mazhab imomlaridan bu borada «Zohir ar-rivoya»da aniq naql bo‘lmagani bilan bog‘liq.

Ikkinchi misol – hayit namozidan keyin tashriq takbirlarini aytish masalasi. O‘shiy tashriq takbirlarini sunnati muakkada deb hisoblaydi (O‘shiy, 2019:111). Imom Saraxsiy va Kosoniyga ko‘ra, hayit namozlari farz bo‘lmagani uchun ulardan keyin tashriq takbirlari aytilmaydi (Kosoniy, s.a.:II/18). Ibn Nujaym esa hayit namozi juma kabi jamoat bilan ado qilingani sababli Balx faqihlari undan keyin takbir aytganini qayd etgan (Ibn Nujaym, 2013:II/179). Abul-Lays Samarqandiy ham bu musulmonlarning qadimdan davom etib kelayotgan amali ekanini e’tiborga olib, uning zarari yo‘qligini aytgan. Ko‘rinib turibdiki, O‘shiyning qarashi Balx faqihlarining amaliyoti bilan hamohang bo‘lib, mahalliy urf va an’anani inobatga olishni ifodalaydi. Bu amal mintaqada bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Uchinchi misol – mazhabni o‘zgartirish masalasi. O‘shiy «Hadlar kitobi»ning ta’zir bobida «Kim (hanafiy mazhabidan) Shofe’iy mazhabiga o‘tsa, unga ta’zir beriladi», deb yozadi va Abu Hafs Kabir Buxoriy yurtida shofe’iylar ko‘p bo‘lgani haqidagi hikoyani keltiradi (O‘shiy, 2019:282). Keyingi hanafiy olimlari bu fatvoni izohlab, ta’zir faqat shar’iy dalilsiz, dunyoviy maqsadni ko‘zlab mazhabni o‘zgartirgan kishiga nisbatan qo‘llanishini, ochiq ijtihod va dalilga asoslangan holda boshqa mazhabga o‘tish esa joiz ekanini ta’kidlagan (Ibn Obidin, 2018:VI/98). Bu fatvo O‘shiy yashagan davrda mazhablararo munosabatlar va jamiyat barqarorligini saqlash muammosi dolzarb bo‘lganini, muftiy o‘z davrining ijtimoiy vaziyatini hisobga olganini ko‘rsatadi.

Ushbu misollar O‘shiyning fatvo amaliyotida mazhabning asosiy manbalariga tayangan holda mustaqil tarjih qilganini, mahalliy faqihlar, xususan, Balx va Movarounnahr ulamolari amaliyotini e’tiborga olganini hamda jamiyatdagi tartib va barqarorlikni muhim mezon sifatida ko‘rganini tasdiqlaydi. Bu esa uning «Muftiyning odobi» kitobida ilgari surgan «odamlarning muomalalarini bilish» talabining amaliy ifodasidir.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari Sirojiddin O‘shiyning muftiy shaxsiga kompleks yondashganini ko‘rsatadi. U muftiydan faqat fiqhiy qarashlarni yod bilishni emas, balki ularning dalillari, ijtihod yo‘llari va ijtimoiy kontekstini anglashni talab qiladi. «Odamlarning muomalalarini bilish» talabi fatvoda zamon va makon omilini, urf-odatlarni hisobga olish zarurligini ifodalaydi. Bu yondashuv hanafiy mazhabida urfga katta e’tibor berilishi bilan uyg‘un bo‘lib, Movarounnahr faqihlarining ko‘p millatli va ko‘p tilli muhitda faoliyat yuritgani bilan ham bog‘liq.

O‘shiyning muftiyga qo‘ygan axloqiy talablari – ilmiy halollik, xatodan qaytish, shoshilmaslik, halimlik va odamlarga teng munosabat – bugungi kasbiy etika tamoyillariga juda yaqin. Zamonaviy tilda aytganda, ular mutaxassisning kompetentlik chegaralarini bilishi, xatolar uchun javobgarlik, mijozga hurmat va xizmatdan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash kabi tamoyillarga mos keladi. Bu esa O‘shiy merosining faqat tarixiy emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda tegishli malakaga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan berilayotgan fatvolar ko‘pincha O‘shiy ogohlantirgan xatolarni takrorlaydi: savolni to‘liq anglamay javob

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

berish, ixtilofli masalada dalilsiz ravishda bir qarashni tanlash, mahalliy urf va sharoitni hisobga olmaslik, fitnaga sabab bo‘ladigan masalalarda shoshilib fikr bildirish. O‘shiyning ko‘rsatmalari bunday holatlarning oldini olish uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Olingan natijalar asosida O‘shiy merosini amaliyotga tatbiq etishning bir necha yo‘nalishini ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, diniy oliy ta’lim muassasalarida «Fatvo nazariyasi va amaliyoti» kabi kurslarda O‘shiy, Qozixon, Burhoniddin Buxoriy kabi mahalliy faqihlarning muftiy odobiga oid qarashlarini alohida mavzu sifatida o‘qitish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, imom-xatiblar malakasini oshirish dasturlarida «bilmayman» deya olish, ixtilofli masalada qarashni egasiga nisbat berish, savolni tafsilotlash va fitnaga sabab bo‘ladigan masalalardan tiyilish kabi ko‘nikmalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantirish lozim. Uchinchidan, rasmiy fatvo amaliyotida beriladigan javoblarning tuzilishi – savolni aniqlashtirish, mazhab manbalariga tayanish, javobni tafsilotlash va kamtarlik iborasi bilan yakunlash – O‘shiy taklif qilgan tartibga yaqinlashtirilishi mumkin. To‘rtinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy savollarga javob beruvchi mutaxassislar uchun O‘shiy merosiga asoslangan odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish foydali bo‘ladi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, unda asosan asarning bosma nashri tahlil qilindi, qo‘lyozma nusxalar bilan to‘liq matniy qiyos o‘tkazilmadi. Kelgusida «Muftiyning odobi» kitobining qo‘lyozmalar asosidagi tanqidiy matnini tayyorlash va uni o‘zbek tiliga to‘liq izohli tarjima qilish, shuningdek, O‘shiy qarashlarini Movarounnahrning boshqa fatvo to‘plamlaridagi muftiy odobiga oid boblar bilan qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiq.

NATIJA

Tahlil natijasida O‘shiy bayon qilgan talablar ilmiy malaka, uslubiy qoidalar, ilmiy halollik, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy fazilatlar va fatvoni yakunlash odobi kabi olti yo‘nalishda umumlashtirildi. Ularning mazmuni 1-jadvalda keltirilgan.

Qiyosiy tahlilda O‘shiy qarashlari bilan keyingi hanafiy manbalaridagi yondashuvlar o‘rtasida mazmuniy uyg‘unlik kuzatiladi. Bu o‘xshashliklar fatvo berish malakasi, qavllarni tanlash va ilmiy mas’uliyatga oid masalalarda namoyon bo‘ladi (2-jadval).

XULOSA

Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo as-Sirojiyya» asarida muftiylik ilmiy tayyorgarlik, amaliy tajriba va axloqiy mas’uliyatga asoslangan faoliyat sifatida yoritilgan. Muallif olimlar qarashlari va dalillarini bilish bilan birga odamlarning muomalalarini tushunish, savolni puxta o‘rganish hamda javobni tegishli shartlar asosida bayon etishni talab qiladi.

Talablar guruhi	Mazmuni	Manba
Ilmiy malaka	Olimlar qarashlari, ularning dalillari va odamlar muomalasini bilish; to‘g‘ri javoblari xatosidan ko‘p bo‘lishi; ustoz huzurida tajriba orttirish	(O‘shiy, 2019:600–601)
Uslubiy qoidalar	Mazhab imomlari qavllari tartibiga rioya qilish; ixtilofli masalalarda qavlni egasiga nisbat berish; javobni tafsilotlash	(O‘shiy, 2019:600–605)
Ilmiy halollik	Bilmagan narsasiga «bilmayman» deyish; xatoni tan olib, undan qaytish	(O‘shiy, 2019:602–603)
Ijtimoiy mas’uliyat	Muhol, foydasiz va fitnaga sabab bo‘ladigan savollarga javob bermaslik; fatvoning oqibatini o‘ylash	(O‘shiy, 2019:602–603)
Axloqiy fazilatlar	Shoshilmaslik, halimlik, vazminlik, yumshoq so‘zlilik; navbatga rioya qilish va odamlarni mavqeiga qarab ajratmaslik	(O‘shiy, 2019:603–606)
Yakunlash odobi	Javobni «Vallohu a’lam» yoki «Va billahit-tavfiq» kabi so‘zlar bilan tugatish	(O‘shiy, 2019:606)

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bilmagan masalada javob berishdan tiyilish, xatoni tan olish va undan qaytish muftiyning ilmiy halolligini ifodalaydi. Halimlik, vazminlik va so‘rovchilarga yordam beradi.

teng munosabatda bo‘lish esa uning kasbiy odobini belgilaydi. Bu talablarni birgalikda o‘rganish fatvo berishning ilmiy va axloqiy asoslarini yaxlit anglashga

Masala	O‘shiyning qarashi	Keyingi manbalardagi aksi
Fatvo berishning hukmi	Loyiq kishi uchun makruh emas, Nahl, 43 bilan asoslanadi	Vaziyatga qarab farzi kifoya yoki farzi ayn deb tasniflanadi
Qavllarni tanlash tartibi	Abu Hanifa – ikki shogird – Abu Yusuf – Muhammad – Zufar va Hasan ibn Ziyod	Ibn Obidin tomonidan batafsil asoslangan (Ibn Obidin, s.a.:I/329)
Ikki fatvo ixtilofi	Parhezkorligi ma’lum bo‘lgach, faqihrog‘iga ergashiladi	Ibn Nujaym ilmi ko‘prog‘ini ustun qo‘ygan (Ibn Nujaym, 2013:VI/449); Ibn Solahning uch qarashi
Fatvoga dalil keltirish	So‘ralmasa, dalil keltirish shart emas	Ikki guruh qarashi: Movardiy, Qarofiy; Xatib Bag‘dodiy, Ibn Solah (Muhibburrahmon, 2018:596)
Xatodan qaytish	Uyalmay va tortinmay xatoni tuzatish	Umarning Abu Musoga maktubi bilan asoslanadi (Usmoniy, 2011:295)

O‘shiy merosidan diniy ta’lim, mutaxassislar malakasini oshirish va fatvo amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq. Kelgusida asarning muftiy odobiga bag‘ishlangan bo‘limini qo‘lyozma nusxalar asosida qiyosiy o‘rganish hamda izohli tarjimasini tayyorlash tadqiqotning manbaviy asosini kengaytiradi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abul-Hoj, S. M. (2021). Al-Madxal al-mufassal ila-l-fiqh al-hanafiy. Amman: Dar al-Fath.
2. Aliy al-Qoriy. (n.d.). Tazyin al-ibora li tahsin al-ishora.
3. Aminov, H., & Primov, S. (2017). Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. Tashkent: Movarounnahr.
4. Burhoniddin Mahmud Buxoriy. (2004). Al-Muhit al-Burhoniy fi-l-fiqh an-Nu’moniy (Vol. 1). Riyadh: Maktabat ar-rushd.
5. Buxoriy, M. ibn I. (2022). Sahih al-Buxoriy. Beirut: Muassasat ar-risola Dorimiy, A. ibn A. (2007). Sunan ad-Dorimiy. Beirut: Dor al-kitob al-arabiy.
6. Hoji Xalifa. (2020). Kashf az-zunun ‘an asomi al-kutub va-l-funun (Vol. 2). Beirut: Dor ihyo at-turos al-arabiy.
7. Dorimiy, A. ibn A. (2007). Sunan ad-Dorimiy. Dor al-kitob al-arabiy.
8. Ibn Nujaym, Z. ibn I. (2013). Al-Bahr ar-roiq sharh Kanz ad-daqoiq. Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya.
9. Ibn Obidin, M. A. (2018). Hoshiya Radd al-muxtor ala-d-Durr al-muxtor (Vol. 6). Beirut: Dor ihyo at-turos al-arabiy.
10. Ibn Obidin Shomiy. (n.d.). Tanbih al-vulot va-l-hukkom. In Majmu’ rasoil Ibn Obidin (Vol. 1).
11. Juzjoniy, A. S. (2002). Islom huquqshunosligi: Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. Tashkent: Tashkent Islamic University Press.
12. Karaman, H. (1996). Fıkıh. In TDV İslâm Ansiklopedisi (Vol. 13). Istanbul: Türkiye Diyanet Foundation.
13. Kosoniy, A. (n.d.). Badoi’ as-sanoi’ fi tartib ash-sharoi’ (Vol. 2).
14. Laknaviy, M. A. (2009). Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. Beirut: Dor al-ma‘rifa.
15. Mahmudo‘g‘li, Y. (2012). Islom huquqining misoliy qurilishi haqida (Vol. 2). Isparta.
16. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar. Tashkent: Hilol-Nashr.
17. Muhibburrahmon, M. H. (2018). Al-Fath ar-rabboniy. Karachi: Maktabat Zamzam.
18. O‘shiy, S. A. ibn U. (2011). Al-Fatovo as-sirojiya. Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya.
19. O‘shiy, S. A. ibn U. (2019). Al-Fatovo as-sirojiya. Karachi: Maktabat Zamzam.
20. Qoriyev, O. A. (2009). Farg‘ona fiqh maktabi va Burhoniddin al-Marg‘inoniy. Tashkent: Fan.
21. Qozixon, F. H. ibn M. (2009). Fatovoyi Qozixon (Vol. 1). Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya.
22. Sebetov, J. (2015). «Al-Fatovo as-Sirojiyya» asari misolida Ali ibn Usmon O‘shiyning fiqh ilmida tutgan o‘rni [Doctoral dissertation]. Istanbul.Toprak, M. S. (2012). Ûşî. In TDV İslâm Ansiklopedisi (Vol. 42, pp. 230–231). Istanbul: Türkiye Diyanet Foundation.
23. Toprak, M. S. (2012). Ûşî. In TDV İslâm Ansiklopedisi (Vol. 42, pp. 230–231). Türkiye Diyanet Foundation.
24. Usmoniy, M. T. (2011). Usul al-ifto va adabuhu. Karachi: Maktabat ma‘arif al-Qur’on.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

REFERENCES

1. Abul-Hoj, S. M. (2021). Al-Madxal al-mufassal ila-l-fiqh al-hanafiy. Dar al-Fath.
2. Aliy al-Qoriy. (n.d.). Tazyin al-ibora li tahsin al-ishora.
3. Aminov, H., & Primov, S. (2017). Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. Movarounnahr.
4. Burhoniddin Mahmud Buxoriy. (2004). Al-Muhit al-Burhoniy fi-l-fiqh an-Nu'moniy (Vol. 1). Maktabat ar-rushd.
5. Buxoriy, M. ibn I. (2022). Sahih al-Buxoriy. Muassasat ar-risola.
6. Hoji Xalifa. (2020). Kashf az-zunun 'an asomi al-kutub va-l-funun (Vol. 2). Beirut: Dor ihyo at-turos al-arabiy.
7. Dorimiy, A. ibn A. (2007). Sunan ad-Dorimiy. Dor al-kitob al-arabiy.
8. Ibn Nujaym, Z. ibn I. (2013). Al-Bahr ar-roiq sharh Kanz ad-daqoiq. Dor al-kutub al-ilmiya.
9. Ibn Obidin, M. A. (2018). Hoshiyat Radd al-muxtor ala-d-Durr al-muxtor (Vol. 6). Dor ihyo at-turos al-arabiy.
10. Ibn Obidin ash-Shomiy. (n.d.). Tanbih al-vulot va-l-hukkom. In Majmu' rasoil Ibn Obidin (Vol. 1).
11. Juzjoniy, A. S. (2002). Islom huquqshunosligi: Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. Tashkent Islamic University Press.
12. Karaman, H. (1996). Fıkıh. In TDV İslâm Ansiklopedisi (Vol. 13). Türkiye Diyanet Foundation.
13. Kosoniy, A. (n.d.). Badoi' as-sanoi' fi tartib ash-sharoi' (Vol. 2).
14. Laknaviy, M. A. (2009). Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. Dar al-ma'rifa.
15. Mahmudo'g'li, Y. (2012). Islom huquqining misoliy qurilishi haqida (Vol. 2).
16. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Fiqhiy yo'nalishlar va kitoblar. Hilol-Nashr.
17. Muhibburrahmon, M. H. (2018). Al-Fath ar-rabboniy. Maktabat Zamzam.
18. O'shiy, S. A. ibn U. (2011). Al-Fatovo as-sirojiya. Dor al-kutub al-ilmiya.
19. O'shiy, S. A. ibn U. (2019). Al-Fatovo as-sirojiya. Maktabat Zamzam.
20. Qoriyev, O. A. (2009). Farg'ona fiqh maktabi va Burhoniddin al-Marg'inoniy. Tashkent: Fan.
21. Qozixon, F. H. ibn M. (2009). Fatovoyi Qozixon (Vol. 1). Dor al-kutub al-ilmiya.
22. Sebetov, J. (2015). «Al-Fatovo as-Sirojiyya» asari misolida Ali ibn Usmon O'shiyning fiqh ilmida tutgan o'rni [Doctoral dissertation].
23. Toprak, M. S. (2012). Ûşî. In TDV İslâm Ansiklopedisi (Vol. 42, pp. 230–231). Türkiye Diyanet Foundation.
24. Usmoniy, M. T. (2011). Usul al-ifto va adabuhu. Maktabat ma'arif al-Qur'on.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.